



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Yarmatova Shahnozaxon Ilxomovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada konstruktiv yondashuv asosida talabalar olgan bilimlarini mustaqil ravishda real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi tahlil qilinadi. Konstruktiv yondashuv asosida talabalar kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida, ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha omillardan foydalanish taklif etiladi. Konstruktivistik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ta'limning individuallashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Individuallashtirilishning asosiy jihatlari talabalar ehtiyojlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga asoslanadi-o'zlashtirish o'ziga xos natija beradi.

Kalit so'zlar: konstruktiv yondashuv, texnologik jarayonlar, kasbiy faoliyat, amaliy mashg'ulot, eksperimental faoliyat, ta'limning individuallashtirish, individual ehtiyoj interfaol mashg'ulotl, eksperimental loyiha, analitik qobiliyat.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОНСТРУКТИВНОГО ПОДХОДА

Ярматова Шахнозахон Илхомовна

Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье анализируется способность студентов самостоятельно применять полученные знания в реальных жизненных ситуациях на основе конструктивного подхода. Предлагается использовать ряд факторов влияния в процессе совершенствования профессиональной подготовки студентов на основе конструктивного подхода. Индивидуализация обучения имеет важное значение в процессе подготовки будущих специалистов на основе конструктивистского подхода. Основные аспекты индивидуализации основаны на организации образовательного процесса с учётом потребностей и уровня знаний студентов – усвоение знаний даёт конкретный результат.

Ключевые слова: конструктивный подход, технологические процессы, профессиональная деятельность, практическое обучение, экспериментальная деятельность, индивидуализация обучения, индивидуальные потребности, интерактивное обучение, экспериментальный проект, аналитические способности.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PREPARING FUTURE SPECIALISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON A CONSTRUCTIVE APPROACH

Yarmatova Shahnozaxon Ilkhomovna

Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the ability of students to independently apply the knowledge they

have acquired in real-life situations based on a constructive approach. It is proposed to use a number of influencing factors in the process of improving students' professional training based on a constructive approach. Individualization of education is important in the process of training future specialists based on a constructivist approach. The main aspects of individualization are based on organizing the educational process taking into account the needs and levels of knowledge of students - mastering gives a specific result.

Keywords: constructive approach, technological processes, professional activity, practical training, experimental activity, individualization of education, individual needs interactive training, experimental project, analytical skills.

Mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyoqarashini keskin o'zgartirgan mutlaqo yangi ta'lim va tarbiya tizimini yaratish va xayotga tadbqiq qilish ma'naviy kasbiy yetuk, ijtimoiy faol, g'oyaviy-siyosiy barqaror kadrlar tayyorlashdir. Bu, o'z navbatida, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ularga o'z bilimlarini mustaqil tarzda yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. Zamonaviy texnika va texnologiya sohasida yangi yondashuvlar orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ushbu, yondashuv asosida talabalarga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha omillardan foydalanish, talabalarni mustaqil ravishda yangilik yaratishiga hamda real hayotiy vaziyatlarda qo'llashiga va o'z-o'zini rivojlantirish xizmat qiladi.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI (ЛИТЕРАТУРА ИМЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).

Ta'lim sohasidagi tadqiqotchilardan bo'lib, Jerome Bruner [4,176b], L.Vigotskiy [2, 159b], J.Piaget [1,368b], konstruktivistik yondashuvning nazariyasi asosida "kashfiyot orqali o'qitish" kontseptsiyasini ilgari surgan. U talabalarning faol ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlari topishlari kerakligini ta'kidlagan. Ernst von Glasersfeld, D.Dewey [3,91b], Uning ishlari konstruktivizmning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U ta'lim jarayonida talabalar o'z tajribalariga asoslanib bilimlarni o'zlari "yaratishlari" lozimligini ta'kidlagan.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).

Konstruktivistik yondashuv talabalarning bilimlarni faqat yod olish bilan cheklanmasdan, balki ularni mustaqil ravishda yaratishiga, real hayotiy vaziyatlarda qo'llashiga asoslanadi. Ushbu yondashuv asosida talabalarda kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha pedagogik-psixologik omillar mavjud. Texnologik jarayonlarni o'rganish davomida talaba ma'lum bir texnologiyani mustaqil o'rganib, uni yangi sharoitlarga moslashtirishga harakat qiladi. Bu jarayon bilimni faqat yodlash bilan cheklanmay, uni qayta ishlab chiqishni taqozo etadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammolarni mustaqil hal qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash kabi vazifalar talabalarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Tikuv buyumlari texnologiyasini o'rganishda talabalar mustaqil ravishda yangi materiallardan foydalanib, ulardan yuqori sifatli mahsulot yaratishga harakat qilishadi. Bu jarayon talabalarda tajriba asosida o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talaba dizayn yaratish jarayonida o'zi tanlagan material va usullardan foydalangan holda yangi model ishlab chiqishi mumkin. Bunday jarayon talabalarda ijodiy fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Loyiha ishlarini bajarishda talaba loyiha natijasi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Ba'zi talabalar nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtirsa, boshqalari amaliy mashg'ulotlarga ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Shu bois, o'qituvchi har bir talabaga mos keluvchi mashg'ulot turlarini tanlaydi. Amaliy mashg'ulot davomida qiyinlikka duch kelgan talabaga o'qituvchi individual maslahat beradi va muammoni hal qilishda yordam beradi. Shu bilan birga, tez o'zlashtiruvchi talabalar murakkabroq loyihalar bilan ishlaydi yoki o'zlari mustaqil tadqiqot o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Tikuv buyumlari texnologiyasida talabalardan biri

materiallar tanlashda yaxshi natija ko'rsatishi mumkin, boshqasi esa dizayn yaratishda muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli, baholash tizimi bu yondashuvni hisobga oladi. Talaba material tanlash jarayonida qiyinchilikka duch kelganida, o'qituvchi unga materiallarning sifatini baholash bo'yicha maslahat beradi va muammoni hal qilishga ko'maklashadi. Tikuv texnologiyalari yo'nalishidagi talaba yangi materiallar bilan ishlash jarayonida qiyinchilikka duch keladi. Talaba muammoni hal qilish uchun mavjud usullarni tahlil qiladi, o'zining ijodiy yondashuvi orqali yangi usulni sinab ko'radi. Natijada, u o'z bilim va tajribasiga asoslanib, yangi innovatsion yondashuv ishlab chiqadi. Texnologik jarayonni tashkil etishda talabaga bir necha usul taklif qilinadi. Talaba ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qiladi va o'ziga mos keluvchi usulni tanlaydi. Bu jarayon talabada muammoni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabaga ma'lum materialdan mahsulot ishlab chiqish topshirig'i beriladi. Talaba bir necha usulni ishlab chiqadi, ularning natijalarini tahlil qiladi va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan variantni tanlaydi. Bu jarayon orqali talaba faqat nazariy bilimlarni emas, balki real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ular yangi material xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi mahsulot yaratadi. Bu jarayon ijodiy fikrlash bilan birga innovatsion faoliyatni ham rivojlantiradi. Talaba tayyorlagan mahsulot sifatini tahlil qiladi va uning sifat ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash bilan birga o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Talabalar birgalikda ishlash jarayonida matolarni qayta ishlash, yangi dizayn ishlab chiqish yoki yangi tikish texnologiyasini tatbiq etish bilan shug'ullanishi mumkin. Bu jarayon ijodiy yondashuv bilan birga yangi innovatsiyalar yaratishga imkon beradi.

NATIJALAR (PE3YJIBTATBI) / RESULTS

Konstruktivistik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi o'quv jarayonida talabalarning faol ishtirok etishi orqali amaliy faoliyatini tashkil etadi. Konstruktivistik yondashuv asosida o'quv jarayonida talabalar faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'riladi. Ushbu jarayonda talabalarning faolligi quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi.

Mustaqil fikrlash va bilim yaratish: konstruktivistik yondashuv talabalarni tayyor bilimlarni qabul qilishga emas, balki o'z bilimlarini yaratishga undaydi. Talabalar nazariy bilimlarni o'z hayotiy tajribalari bilan bog'laydi va ulardan yangi xulosa chiqaradi;

Muammolarni hal qilish ko'nikmasi: talabalarning o'quv jarayonida faol ishtiroki ularning muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish (problem-based learning) orqali talabalar real hayotiy masalalarni hal qilishga o'rgatiladi;

Eksperimental faoliyatga jalb qilish: Konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim jarayonida talabalar real laboratoriya sharoitida yoki amaliy mashg'ulotlarda bevosita ishtirok etadi. Bu jarayon o'z ichiga quyidagilarni oladi;

Yangi materiallarni tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlarda qatnashish, ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish;

Talabalarning ijodiy faoliyati: Konstruktivistik yondashuv talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi. Talabalar yangi yechimlarni izlash, turli materiallar bilan ishlash, ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'zlarining kasbiy mahoratini oshiradi;

Natijalarga javobgarlik: Talabalarning faol ishtiroki ularni o'z natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga undaydi. O'quv jarayonida qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilgan loyihalar natijalari to'g'ridan-to'g'ri talabalar faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu esa talabalarni o'z bilimlari va qarorlariga nisbatan mas'uliyatni oshiradi;

Ta'limning individuallashtirilishi: Konstruktivistik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ta'limni individuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Har

bir talabaning qobiliyatlari, qiziqishlari, bilish jarayoni va o'zlashtirish sur'ati o'ziga xos bo'ladi. Shu sababli, konstruktivistik yondashuv doirasida ta'lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtiriladi va mos keluvchi strategiyalar qo'llaniladi. Individuallashtirish quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi:

Talabalar ehtiyojlariga mos ta'lim dasturlari: Konstruktivistik yondashuv talabalar ehtiyojlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga asoslanadi. O'qituvchi o'quv jarayonini moslashtiradi va individual yondashuv asosida maxsus mashg'ulotlar ishlab chiqadi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirishga qiynalayotgan talabalar uchun interfaol mashg'ulotlar tashkil qilish;

Amaliyotga qiziqishi baland bo'lgan talabalar uchun eksperimental loyihalar ishlab chiqish;

Ijodiy qobiliyatga ega talabalar uchun muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish.

Moslashtirilgan ta'lim sur'ati: Har bir talabaning bilish jarayoni va o'zlashtirish qobiliyati turlicha bo'ladi. Shu sababli konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim jarayoni talabalarning individual o'zlashtirish sur'atiga moslashtiriladi.

Tez o'zlashtiruvchi talabalar uchun chuqurlashtirilgan topshiriqlar;

Bilimlarni asta-sekin o'zlashtiruvchi talabalar uchun qo'shimcha tushuntirish va ko'mak;

Har bir talabaga mustaqil ravishda o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini berish.

Talabalarning qobiliyatlariga mos yondashuv: Har bir talaba o'z qobiliyatlari va moyilliklariga ko'ra bilimlarni o'zlashtiradi. Shu sababli konstruktivistik yondashuv asosida talabalarga mos keluvchi o'quv materiallari tanlanadi.

Texnik bilimlarga ega talabalar uchun texnologik jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq topshiriqlar;

Ijodiy qobiliyatga ega talabalar uchun dizayn yoki innovatsion yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan vazifalar;

Analitik qobiliyatga ega talabalar uchun tahlil va natijalarni prognoz qilish bilan bog'liq mashg'ulotlar.

Bu jarayon individual yondashuvni ta'minlaydi va talabalarning qiziqishlari asosida bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Baholash tizimini individuallashtirish: Konstruktivistik yondashuv asosida baholash tizimi ham talabaning individual rivojlanishiga moslashtiriladi. Talabalar bilimni faqatgina yakuniy natijaga ko'ra emas, balki butun o'quv jarayoni davomida ko'rsatgan natijalari asosida baholash muhim ahamiyatga ega.

-Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi;

-Amaliy topshiriqlarni bajarish sifati;

-Muammolarni hal qilishda ko'rsatgan ijodiy yondashuvi;

-Jamoaviy ishlarda ko'rsatgan faolligi.

Talabalarga mos maslahat va ko'mak tizimi: Ta'lim jarayonida o'qituvchi talabaga maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Talaba duch kelgan muammolarni hal qilishda o'qituvchi individual maslahat beradi va u bilan birgalikda muammolarni tahlil qiladi;

*Talabaning mustaqil qaror qabul qilishiga ko'maklashish;

*Muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun talabaning fikrini tinglash va baholash;

*Talabaga yangi strategiyalarni tavsiya qilish.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Konstruktivistik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kasbiy faoliyat sharoitlari talabalar nazariy bilimlarni mustaqil tahlil qilish, ularni real sharoitlarga moslashtirish va innovatsion

yondashuvlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishini taqozo etadi. Shu sababli, konstruktivistik yondashuv tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishni ta'lim jarayonining asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

-Mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish: Tanqidiy fikrlashning asosiy belgilaridan biri — bu bilimlarni shunchaki qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash va asoslash ko'nikmasidir. Konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim jarayonida talabalarga mustaqil fikrlash imkoniyati beriladi.

Talabalar ma'lum mavzu bo'yicha bir nechta manbalarni o'rganadi va ularni qiyosiy tahlil qiladi;

Fikrlarni asoslash uchun dalillar keltiradi;

Qaror qabul qilish jarayonida turli fikrlarni ko'rib chiqadi va ulardan to'g'ri xulosalar chiqaradi;

Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tanqidiy fikrlash muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim jarayonida talabalar real vaziyatlar asosida muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadi. Bu jarayonda quyidagi bosqichlar kuzatiladi: Muammoning mohiyatini tushunish, muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan variantlarini ishlab chiqish, har bir variantni tahlil qilish, eng maqbul yechimni tanlash, amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish.

Alternativ fikrlashni rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash jarayonida muammoni hal qilishning turli usullarini ishlab chiqish va qiyoslash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Talaba bir vaziyat bo'yicha bir nechta yechimlarni taklif etadi, har bir yechimning afzallik va kamchiliklarini aniqlaydi, yechimlarni o'zaro solishtiradi, eng maqbul variantni tanlaydi.

Yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish

Ijodiy fikrlash konstruktivistik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Talabalarda yangi bilim yaratish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Talabalar yangi dizayn, model yoki mahsulot yaratadi, yangi texnologiyalardan foydalanib, ilgari mavjud bo'lmagan mahsulot yaratadi, an'anaviy yondashuvlardan farqli innovatsion usullarni ishlab chiqadi.

Tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash jarayonida talaba nafaqat o'z ishini, balki boshqalarning ishini ham baholash ko'nikmasini rivojlantiradi. Talaba o'z faoliyati natijalarini baholaydi, boshqalarning yondashuvini tahlil qiladi, yuzaga kelgan xatolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qiladi, Talabalar o'rtasida o'zaro tahlil va baholash jarayoni tashkil qilinadi.

Ijodiy yondashuv orqali innovatsiyalar yaratish: Ijodiy fikrlash jarayonida talabalar yangi texnologiyalar va materiallardan foydalanib, ilgari mavjud bo'lmagan mahsulotlar yaratadi. Yangi materiallar bilan tajriba o'tkazish. Turli ishlab chiqarish texnologiyalarini birlashtirish. Ilgari mavjud bo'lmagan innovatsion mahsulot yaratish

Talabalar o'rtasidagi hamkorlik va interaktivlik konstruktivistik yondashuv asosida ta'lim jarayonida talabalar o'rtasidagi hamkorlik va interaktivlikni ta'minlash muhim o'rin tutadi. Hamkorlik jarayoni talabalarning o'zaro bilim almashishi, jamoaviy qaror qabul qilishi, birgalikda muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Interaktivlik esa ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi jarayonlarni qamrab oladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Ushbu yondashuv asosida talabalar o'quv jarayonida faol ishtirok etadilar, mustaqil fikrlab va yangilik yaratadi, muammolarni o'zi hal qiladi va mustaqil hal qilish qobiliyati rivojlanadi, mustaqil tahlil qiladi sinov orqali o'z yangiliklarini ishlab chiqadi.

Konstruktivistik yondashuv asosida ta'limni individuallashtirish talabalarga o'z ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishi, o'z sohasiga moslashuvi va natijada jahon talablariga mos keluvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Konstruktivistik yondashuv asosida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga, muammolarni hal qilishga, yangi g'oyalar ishlab chiqishga va innovatsiyalar yaratishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith J. Kasbiy ta'limda konstruktivistik yondashuvlar // Ta'limiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – Vol. 35, No. 2. – P. 45–60.
2. Müller H., Schneider T., Weber L. Texnik ta'limda interfaol o'qitish usullari // Germaniya pedagogika jurnali. – 2020. – Vol. 29, No. 3. – P. 120–135.
3. Johnson R. Texnik ta'limda muammoli ta'lim // Ta'limiy innovatsiyalar. – 2019. – Vol. 27, No. 1. – P. 75–90.
4. Masharipova G. K. To'qimachilik texnologiyalarini o'qitishda innovatsion usullar // Zamonaviy pedagogika jurnali. – 2022. – Vol. 14, No. 4. – P. 98–110.